

МЕ'МОРЧИЛИК VA QURILISH

MUAMMOLARI

ISSN: 2091-5004

ILMIY TEHNİK JURNAL

27.04.2023 № MAHSUS SON

PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION
(Scientific and technical journal) 27.04.2023 № SPECIAL ISSUE

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА
(научно-технический журнал) 27.04.2023 № СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК


Jurnal OAK Hay'atining qaroriga binoan texnika (qurilish, mexanika va mashinasozlik sohalari) fanlari hamda me'morchilik bo'yicha ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan (guvohnoma №00757. 2000.31.01)

2023

Jurnalimizdagи inglez tilida chop etilgan maqolalar OAK Rayosatining 2020 yil 30 iyuldagи 283/7.1-sон qaroriga asosan xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga tenglashtirilganini ma'lum qiladi.



Google Scholar provides a simple way to broadly search for scholarly literature.



Any status is accepted, from any stage of the research lifecycle



Wikipedia is a free online encyclopedia created by volunteers around the world



Open Journal Systems (OJS) is an open source solution to managing and publishing scholarly journals online.



UDK 712

O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA ZAMONAVIY BINOLAR KO'PAYGANLIGI SABABLI SHAHAR LANDSHAFTI VA ISTIROHAT BOG'LAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Tasviriy san'at"
kafedrasi mudiri, katta o'qituvchi Shakarboy Eliboyevich O'rino'yev*


*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Tasviriy san'at"
kafedrasi o'qituvchisi Dilshoda Mustafayevna Nazarova*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda O'zbekiston shaharlarida binolar zichligini inobatga olib, ekologik muhitga katta e'tibor qaratishni, zamonaviy innovatsion loyihamosasida mamlakatimiz binolar atrofi va ko'chalarimiz yon atrofida landshaft arxitekturasini loyiha-takliflarni ishlab chiqishimiz, ba'zi binolarimiz atrofida ko'kalamzorlashtirish yo'qolib borayotgani haqida taklif kiritish kamchiliklarni bartaraf etish. Katta shaharlarimizga qarasangiz, asosan, binolar va asfaltni ko'rish mumkin. O'zbekistonda sayyoqlikni rivojlantirish uchun mamlakatimiz ekologik balansni yuqotmaslik to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muhit, hudud, bino, landshaft arxitektura, loyiha-taklif, sayyoq, istirohat bog'i, tabiiy infratuzilma, tabiat elementi, o'simlik, shaharsozlik, xiyobonlar, daryolar, kanal.

Annotation. In this article, taking into account the density of buildings in the cities of Uzbekistan today, it is necessary to pay great attention to the ecological environment, develop design proposals for landscape architecture around buildings and streets of our country based on modern innovative projects, suggest that greenery disappear around some of our buildings eliminated shortcomings. When you look at our big cities, you can mostly see buildings and asphalt. In order to develop tourism in Uzbekistan, our country was informed about the non-contamination of the ecological balance.

Keywords: ecological environment, territory, building, landscape architecture, project proposal, tourist, park, natural infrastructure, element of nature, vegetation, urban planning, alleys, rivers, canal.



1-rasm



2-rasm



3-rasm

Shaharlarda binolar joylashgan hududlarda kam bo'limgan miqdorda yashillik, parklar, bog'lar, sayilgohlar bo'lishi shart. Aks holda ekologik balans yo'qoladi, bu tabiatning «jahlini chiqaradi». Jahli chiqqan tabiat esa insoniyatga aytaylik qurg'oqchilik bilan «shujum qilishi mumkin». Chindan katta shaharlarimizga qarasangiz, asosan, binolar va asfaltni ko'rasiz.

Bugun shaharlarda landshaft arxitekturasiga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Shaharsozlik rivojlanib, qurilayotgan binolar zichligi oshgani sayin shahar landshaftiga bo'lgan munosabat o'zgaryapti (1-rasm). Ilgari tabiat va shahar

bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan hamda istirohat bog'lari shaharlarda sun'iy ravishda yaratilgan tabiat makoni shakllangan edi (2-rasm). Endi shaharsozlik tendentsiyasi o'zgarib, arxitektorlar unda ekologik asoslar yaratish ham muhim ekanini ta'kidlashmoqda.

Ya'ni istirohat bog'lari va ularni tabiiy infratuzilma sifatida bog'laydigan yashil yo'laklar (xiyobonlar, daryolar, kanallarni) yaratish shaharsozlikning muhim bo'lagiga aylanmoqda. Bunday sharoitda istirohat bog'lari yagona tabiiy tarmoq yaratishi va yashil yo'laklar ular orasidagi ekologik aloqani ta'minlashi kerak (3-rasm).



Landshaft arxitekturasi oddiy arxitekturadan biroz murakkab va maftunkor. Bunda arxitektor uchun o'simliklar qurilish materiallari hisoblanadi va doimiy ravishda ularning hajmi, shakli, rangi va tuzilishi o'zgarib turadi.

Istirohat bog'larida daryolar, kanallar va tepaliklardan foydalanib, turli xil landshaftlarni yaratish mumkin (4-rasm). Bunda holatni ozgina o'zgartirish yetarli bo'ladi va ular yangicha ko'rinishga ega



4-rasm



5-rasm



6-rasm

Zamonaviy va ideal parklarda qurib qolgan daraxtlar ham saqlanishi mumkin.

bo'ladi. Hatto qishda ham istirohat bog'lari rang-barang bo'lishi mumkin: oq, yashil rang, qora tanalar, kulrang va qizg'ish novdalar. Shahardagi salqin istirohat bog'laridagi daraxtlar soni oz bo'lishi mumkin, ammo yirik va sershox daraxtlarning bo'lishi yetarli bo'ladi (5-rasm). Bunday joy daraxtlar zich joylashgan yovvoyi o'rmonga o'xshamaydi. Landshaft arxitektorlari kelajak landshaftining me'mori hisoblanadi (6-rasm).



7-rasm



8-rasm



9-rasm

Ko'rinishni chiroyli saqlash uchun qurigan daraxtlar kesilishi kerak, deb o'ylarsiz, ammo ular ayrim hollarda shunchaki qurigan xunuk daraxt sifatida emas, balki o'nlab yillar davomida tabiiy jarayonlarni kuzatishga imkon beradigan tabiat elementi sifatida saqlanadi. Ana shunda qurigan daraxt ham istirohat bog'lariga atmosfera bera oladi.

Chiroyli shoxlari bo'lgan quruq daraxt bog' landshaftining bir qismiga aylanishi va avangard haykalga o'xhashi mumkin. Hatto kesilgan daraxtning to'nkasini ham saqlab qolish va chiroyli tarzda umumiy ko'rinish bilan uyg'unlashtirish mumkin. Bunda har bir daraxt o'z hayoti va tarixiga ega bo'lishi mumkin (7-8 rasmlar).

Istirohat bog'larida nafaqat maxsus maysazorlar, balki butalar va tabiiy o'tloqli maydonlar ham bo'lishi muhim. Ular hasharotlar, mayda hayvonlar va qushlar uchun yashash joyi hisoblanadi. Oxirgi

bormoqda (9-rasm). Bu ayniqsa, har yili yo'qolib borayotgan turlar soni ma'lum darajada o'sib borayotgani uchun ham ahamiyatlari. Istirohat bog'larida yorug'lik juda ko'p bo'lmasligi muhim. U odamlarni ko'rish, tashrif buyuruvchilar o'zini xavfsiz his qilishi uchun yetarli bo'lishi kifoya. U yerda fonar ustunlari bo'lishi shart emas – yoritkichlarni devorlarga yoki yo'laklarga o'rnatish kifoya qiladi. Yoki bo'lmasa, aniq ko'rini turuvchi yo'lkkalar ham adashib qolmaslik uchun yetarli.

Zamonaviy shahar istirohat bog'larining vazifalari shundan iboratki, shaharda bitta katta markaziy istirohat bog'i bo'lishi kerak, degan fikr allaqachon eskirdi. Endi shaharsozlarning fikriga ko'ra, shaharning turli qismlarida bir nechtalab kichik istirohat bog'larini bo'lishi kerak (10-rasm). Shahar parklarining afzalliklari quyidagilardan iborat: unda odamlar estetik zavq oladi, tabiiy



ekotizimlarni saqlashga yordam beradi, odamlarni jismoniy faollikka undaydi, iqtisodiy rivojlanish omili hisoblanadi (11-



10-rasm



11-rasm



12-rasm

Bugungi kunda istirohat bog'larining me'morlari o'z mahorati bilan tabiat va odamlarni bir-biriga foyda keltiradigan qilib birlashtirish uchun harakat qilmoqda (12-rasm).

Bugun aksariyat mamlakatlarda aholining yarmidan ko'pi shaharlarda istiqomat qiladi. Kelajakda bu raqam yana o'sishi kutilyapti. Shaharlar odamlarning hissiy va jismoniy farovonligiga, sog'ligi va farovonligiga ta'sir qiladi. Shaharlar iqlim o'zgarishlari va boshqa inqirozlarga moyil. Bularning barchasi shaharda uzoq, qulay va faol hayot tobora muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Shaharlardagi yashil hududlar sershovqin shahar hayotida insonlardagi jizzakilik va asabiylikni yengillashtiradi. Odamlar asabiylashganda tabiat bilan tez-tez aloqada bo'lishga intiladi. Ha, istirohat bog'larida qisqa muddatli sayr ham shahar aholisining asabini tinchlantiradi. Yashil hududlar odamlarga quvonch ulashadi, ulardagi tashvishlarni kamaytiradi, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va ijtimoiy aloqani ta'minlaydi. Oddiy qilib aytganda, tabiat odamlarni sog'lom, baxtli va aqlii qiladi.

Yaxshi istirohat bog'larini qanday loyihalashtirish kerak?

Yaxshi qurilgan istirohat bog'ları, bir qarashda, boshqa jamoat joylaridan deyarli farq qilmasligi mumkin. Ammo unda boshqa istirohat bog'lariga nisbatan tashrif buyuruvchilar ko'p bo'ladi va odamlar unda o'zlarini qulay va xavfsiz his qiladi.

Yaxshi istirohat bog'larini loyihalash uchun maxsus joy izlash kerak emas. Katta yo'l yoqasi yoki temir yo'l ko'prigi ostidagi bo'sh joyda ham yaxshi park qurish mumkin. Asosiy mavjud yerdan to'g'ri foydalanish kerak. Bundan tashqari, istirohat bog'larining dizaynerlari davlat, investor va jamiyat bilan

rasm). Parklarda yolg'izlikni istayotganlar uchun ham, muloqot xohlovchilar uchun ham sharoitlar bo'lishi kerak.

11-rasm

birgalikda ularning manfatlarini inobatga olib ishlashi kerak.

Yaxshi istirohat bog'ları o'zi joylashgan makonni uning atrofidagi barcha jamoalar bilan bog'laydi. U yerga qanday odamlar borishi va nima qilishini, albatta, inobatga olish kerak. Eng muhimmi bu haqda odamlarning o'zlaridan so'rash kerak va ularning xohish hamda istaklari bilan hisoblashish kerak.

Istirohat bog'ları har bir kishi tabiat qo'ynda o'z vaqtini zavq bilan o'tkazadigan muhim jamoat joyi hisoblanadi. Bundan tashqari, «har bir kishi» tushunchasi haqiqatan ham shahar aholisining barcha toifalarini: qariyalar, bolalar, nogironlar, uy hayvonlarini yetaklagan odamlar, shuningdek, jinsi, yoshi, irqi va kasbidan qat'i nazar, barcha odamlarni qamrab oladi. Iste'molchilarining barcha guruuhlari manfaatlarini hisobga olish istirohat bog'larini qurishda muhim hisoblanadi.


Inklyuziv yondashuvda nafaqat tashrif buyuruvchilarining turli ehtiyojlari, balki ular o'rtasidagi o'zaro muloqot uchun ham dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, nogiron va sog'lom bolalarning birgalikda o'ynashi uchun sharoitlar yaratilishi, o'yin maydonchasiga hech qanday to'siqsiz kirish imkoniyati, bog'dagi infratuzilma – soya qiladigan ayvonlar va o'rindiqlarni moslashtirish kabi ishlar shular jumlasidan. Shuningdek, barcha uchun qulay yo'laklar, bepul, toza va kirish qulay hojatxona va aniq navigatsiya joriy qilinishi ham muhim ishlar sirasiga kiradi.

Shaharda himoyasiz guruuhlarga noto'g'ri munosabatda bo'lish ko'p uchraydi. Shuning uchun, istirohat bog'ları 8 yoshli boladan tortib, 80 yoshli keksalar uchun ham qulay bo'lishi kerak. Bolalar uchun parklar turli o'yinlarni o'rganish, boshqalar bilan ijtimoiy



aloqalar o'rnatish uchun qulay joy hisoblanadi. Shuningdek, bog'lar bolalarning turli ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularga do'stlar orttirishga yordam beradi.

Aksariyat shaharlarda aholining umr ko'rish davomiyligi oshmoqda, demak endi bundan buyog'iga shahar aholisi tarkibida keksa yoshdag'i insonlar soni oshib boraveradi. Keksalar uchun istirohat bog'lari yolg'izlikni yengib o'tish uchun eng yaxshi joy bo'lishi lozim (13-rasm). Umuman,



13-rasm



14-rasm



15-rasm

Kelajakdagi istirohat bog'lari ko'ngilochar usullar bilan ta'lim olish maskanlari va multimedia komplekslari ko'rinishida ham bo'ladi (15-rasm). Kuchli kontseptsiyalarga yo'g'rilgan g'oyalar va puxta o'ylangan dizaynga ega istirohat bog'lari bir tarafdan sayyoohlар uchun muhim joyga, ikkinchi tomondan mintaqa uchun alohida diqqatga sazovor joyga hamda shahar brendining bir qismiga aylanadi.

Urbanizatsiyalashuvning yangi talablariga ko'ra, shahardagi barcha ko'chalar yoqasidagi yo'laklarda, atrof-muhit ob'ektlari o'rtasida piyodalar harakatlanishi uchun maksimal qulaylik yaratish kerak. Piyodalarning harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan dunyoning ko'plab shaharlarida tizimi amalda oshirilgan. Unga ko'ra shaharda ishlaydigan har bir fuqaro ko'pi bilan 10 daqiqa piyoda yurgach, qaysidir xiyobonga bora olishi kerak. Salqin joyda dam olish, kitob o'qish va boshqa ruhiyatni ko'taruvchi mashg'ulot uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Xulosa. Istirohat bog'ini shahar ijtimoiy hayotining muhim qismiga aylantirish uchun odamlar bilan bog' o'rtasida aloqa o'rnatish, "aqli bog'" innovatsion loyihasini ishlab

parklar turli yosh vakillari birgalikda yig'ilib, o'zaro muloqot qilishi uchun ham mos maskan bo'lishi kerak. Yaqin kelajakda astasekinlik bilan istirohat bog'lariga bo'lgan talablar ham o'zgaradi va tashrif buyuruvchilar orasida o'zaro munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'ladi. Tabiiy, tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish yanada ijtimoiylashadi (14-rasm).



14-rasm



15-rasm

chiqish kerak. Birinchi bosqichda odamlarni avvalo, bog'larga jalg qila olish muhim. Keyin esa bog'larda shunday qulay sharoitlar yaratish kerakki, u yer odamlar qayta-qayta keladigan sevimli maskanga aylansin. Shinam zamonaviy istirohat bog'lari – bu nafaqat qulay rejalashtirilgan dam olish maskani, balki geografik axborot tizimlari, sensorli tarmoqlar va boshqa aqli texnologiyalardan foydalananidan joydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Казаков Л.К. Ландшафтovedение с основами ландшафтного планирования. – Москва: Академия, 2008.
3. Рахимов К.Д., Уралов А.С. Ландшафт архитектураси объектларини лойихалаш. – Тошкент: 2015
4. Исламова, Д. Г., & Собирова, О. (2017). ВОССТАНОВЛЕНИЕ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕТАЛЕЙ И МЕТОДИКИ РЕСТАВРАЦИИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-8), 13-15.



MUNDARIJA

1– SHO‘BA. "SHAHAR HUDUDLARINI RIVOJLANTIRISH ARXITEKTURA VA SHAHAR MUHITINING SHAKLLANISHI VA KOMPLEKS RIVOJLANISHI"		
1.	Садиков Нематджон Исмаилович, Садикова Ситора-бону Нематджоновна КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНКУРСНЫХ ПРОЕКТОВ «ЦЕНТРА ТЮРКСКОГО МИРА В ГОРОДЕ ТУРКЕСТАН»	4-9
2.	Али Марва Мохамед Ханафи , Шукurov I.S, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕОРАДАРА «ЛОЗА» В ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ И РЕКОНСТРУКЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ	10-15
3.	U.R.Oktyabirov, WORLD EXPERIENCE ON URBAN PLANNING SPHERE	16-20
4.	Шукуроев И.С., Маракулина С.П, ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТИПА ЖИЛОЙ ЗАСТРОЙКИ ДЛЯ ТЕРРИТОРИЙ СО СЛОЖНЫМ РЕЛЬЕФОМ. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ	21-23
5.	Оленьков Валентин Данилович, Ятимов Илхом Абдуразикович, Колмогорова Алена Олеговна, ЛАНДШАФТНО-КЛИМАТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАНА С ОПРЕДЕЛЕНИЕМ ГОРОДОВ С ЖАРКИМ ВЕТРОВЫМ И ЖАРКИМ ШТИЛЕВЫМ КЛИМАТОМ	24-27
6.	Камалова Дильноза Зайнидиновна ¹ , Файзуллаева Нодира Найимовна ¹ , САМОБЫТНОСТЬ ЛАНДШАФТНОГО ЗОДЧЕСТВА ДРЕВНИХ ГОРОДИЩ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ИХ ГРАДОФОРМИРУЮЩЕЕ ЗНАЧЕНИЕ	28-33
7.	М.Б. Худоярова, Р.У. Чекаева, ШАҲАРСОЗЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ ВА БИНО ИНТЕРЬЕРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	34-37
8.	Рабиев Ғайрат Ботирович. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ЁШ ОИЛАЛАРГА ЯККА ТАРТИБДА ТУРАРЖОЙ ҚУРИШ УЧУН ЕР МАЙДОНИ АЖРАТИЛИШИГА ДОИР ТАКЛИФ-МУЛОҲАЗАЛАР.	38-41
9.	Гильманова Нафиса Валиахметовна, КВАРТАЛЬНАЯ МЕЧЕТЬ	42-45
10.	Ro‘ziyev Hoshim Ro‘ziyevich , Odilov Akmal Baxshilloyevich, BUXORO SHAHAR HUDUDINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	46-50
11.	Yaxyayev A.A., Sabirov Orifjon Ikromovich, XORAZM VILOYATI ZAMONAVIY TURAR-JOY MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA LANDSHAFT ARXITEKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH	51-53
12.	Qurbanov Ravshan Xushnazarovich, ISPAANIYA YANGI ARXITEKTURA ShAKLLANISHI: ANTONIO GAUDI	54-58
13.	G’. Shukurov , A.G. Shukurov, M.A. Shukurova, D.G. Islamova , SAMARQAND SHAHRIDA SHAHARSOZLIK BO’YICHA BUNYODKORLIK ISHLARI.	59-62
14.	Jurayeva Elmira Elmuratovna , Ma’murjonov Shukrullo Umidjon , RESEARCH OF HISTORICAL CITY CENTERS	63-67
15.	Вахитов М.М., Набиев Хамид , БУХОРО АМИРИНИНГ КОГОН ШАҲРИДАГИ САРОЙИ	68-71
16.	Shakarboy Eliboyevich O‘rinboyev, Dilshoda Mustafayevna Nazarova, O’ZBEKİSTON SHAHARLARIDA ZAMONAVIY BINOLAR KO‘PAYGANLIGI SABABLI SHAHAR LANDSHAFTI VA ISTIROHAT BOG’LAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	72-75